

**HANAFIY MAZHABIDA SHUHRAT QOZONGAN TO‘RTTA MO‘TABAR
FIQHIY MATNLAR**

*O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi 2-kurs
magistranti **Ro‘zmetov MuhammadMustafo***

Annotatsiya

Fiqh ilmini o‘rganishda ilmiy ish qilayotgan va hanafiy mazhabida yozilgan kitoblar orasini qiyosiy tahlil qilish niyatida bo‘lgan erkin tadqiqotchilar uchun birinchi navbatda mazhabdagi mo‘tabar matnlarni o‘rganishi zarur hisoblanadi. Chunki matn kitoblari hanafiy mazhabidagi eng sahih va eng rojih bo‘lgan qavllarni jamlagan kitoblar hisoblanadi. Ushbu maqolada hanafiy mazhabida ta’lif etilgan mashhur matnlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Fiqh, faqih, mazhab, mutun, shuruh, hanafiy, voqeot, fatovo, fuqaho.

Mutaaxxir ulamolar nazdida to‘rtta mo‘tabar fiqhiy matn kitoblari bor bo‘lib, ular "Muxtasarul Quduriy", "Viqoyatur rivoya", "Kanzud daqiq" va "al-Muxtor lil fatvo" bo‘lib, "mutunu arbaa" (to‘rtta matn) nomi bilan ham yuritiladi. "Al-Muxtor" ning o‘rniga "Majmaul bahrayn"ni ham qo‘shadiganlar bor. "Mutunu salosa" (uchta matn) deyilganda esa avvalgi uchtasi nazarda tutiladi.¹

1) **"Muxtasarul Quduriy"**. Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad Quduriy Bag‘dodiy (972-1037) asari bo‘lib, u hanafiy mazhabidagi fiqhiy matn kitoblari ichida eng e‘tiborlisi va o‘rni yuksagidir. Hoji Xalifa (1609-1657) aytishiga qaraganda, hanafiy mazhabida "Kitob" deb fiqhiy manba aytilsa, ushbu asar nazarda tutilgan bo‘ladi. U taniqli faqihlar orasida shuhrat qozongan, e‘tibor ega eng taniqli matn kitobi hisoblanadi. Unda 12000 fiqhiy masala zikr qilingan.

"Muxtasarul Quduriy"ning e‘tibori va shuhrati shu darajaga yetganki,ulamolar uni vabo kunlari o‘qilsa, vabo yo‘qoladi, deb tabarruk sanashgan.

Abu Ali Shoshiy bunday degan: "Kimki ushbu "Muxtasarul Quduriy" ni yod olsa, ashoblarimizning eng hizlirog‘i bo‘ladi. Kim "Muxtasarul Quduriy" ni tushunsa, ashoblarimizning fahmlirog‘i bo‘ladi".

"Muxtasarul Quduriy" ning mashhurligi, e‘tibori sababli unga juda ko‘p sharhlar, hoshiyalar bitilgan, uni nazmga solishgan.

2) **"Al-Viqoya"**. Ushbu asarning to‘liq nomi "Viqoyatur-rivoya fiy masoyilil hidoya" ("Hidoya" masalalarida rivoyatlarni asrovchi) bo‘lib, u "Muxtasarul viqoya" sohibining bobosi Burhonush sharia (ba‘zilar uni ham "Tojush sharia" deydilar) Mahmud

¹ Abdulhay Laknaviy. Muqaddimatu Umdatir rioya" – Laknau: "Yusufiy", 1327. – B. 10.

ibn Sadrush sharia Ahmad Mahbubiy (vaf 630/1232) qalamiga mansubdir. U Buxorodan chiqqan yetuk hanafiy mazhab faqihlaridandir. Kafaviyning (vaf. 990/1582) aytishiga qaraganda, bu asar “Al-Hidoya”, “Al-Fatovo”, “Al-Voqeot” masalalaridan tanlab olib yozilgan. Muallif Mahmud ibn Ahmad Mahbubiy uning nevarasi Ubaydulloh ibn Mas’ud Mahbubiy uchun ozgina-ozginadan yozar, nevarasi esa har bir yozilgan qismni yod olar edi. Kitob tugaganda nevarasi uni to‘liq yod olgan. Bu haqda Ubaydulloh ibn Mas’ud Mahbubiy ushbu asarga yozgan “Sharhul viqoya” asarida bunduy deydi: “Bu bobom va ustozim Mahmud ibn Sadrush sharianing mening yodlashim uchun yozgan “Viqoyatur rivoya fiy masoyilil hidoya” asarining yopiq o‘rinlarini ochish maqsadida yozilgan sharhdir. Muallif sohib uni bir saboq bir saboq qilib yozar, men esa yodlash maydonida bir chopish-bir chopish qilib yurar edim. Hatto kitob yozilishining tugashi mening yod olishim poyoniga to‘g‘ri keldi.”²

Asrlar davomida “Al-Viqoya”ga ulamolar va tolibi ilmlarning ixloslari yuksak bo‘lgan. Shuning uchun uning sharhlari, unga bag‘ishlangan hoshiyalar, u asosida bitilgan manzumalar juda ko‘p.

3) “**Kanzud daqiq**”. Hofiziddin Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiy (1232-1310) qalamiga mansub ushbu kitobning to‘liq nomi “Kanzud daqiq fiy ilmil furu” (Furu ilmida nozik masalalar xazinasini) bo‘lib, fiqhiy matn kitoblari orasida o‘ziga xos o‘ringa ega.

“Kanzud daqiq, muallifning “Al-Vofiy fil furu” (Furu’ul fiqh borasida vafo qiluvchi) asaridan qisqartirib olingan matn bo‘lib, muallif tolibi ilmlarning keng va katta hajmli kitoblarni o‘qishdan zerikishlari, inson tabiati qisqa bitilgan kitoblarga rag‘batli ekanligi sababli ushbu kitobini yozayotganini aytgan va asari qiyin, mushkul o‘rinlardan xoliligini, unga “Fatovo” hamda “Voqeot” masalalari bilan ziynat berilganligini qayd qilgan.”³

“Kanzud daqiq”da boshqa fiqhiy matn kitoblarida uchramagan mavzular, jumladan, faroiz kabilar ham bor.

“Kanzud daqiq” asari asrlar davomida madrasalarda darslik sifatida o‘qitib kelingan. Shuning uchun unga o‘nlab sharh, hoshiyalar bitilgan. Bunday sharh va hoshiyalarning ko‘pligi bu asarning naqadar mashhurligi va hanafiy mazhabida mo‘tabar manba ekanligidan dalolat beradi.⁴ Uning sharhlari orasida “Tabyinul haqiq” (Haqiqatlarni bayon qilish), “Ramzul haqoyiq” (Haqiqatlar ramzi), “Bahrur roiq” (Shirin dengiz), “Nahrul foiq” (To‘la anhor) kabilar shuhrat qozongan. “Kanzud daqiq” ba’zi fiqhiy asarlarda qisqartirilib, “Al-Kanz” deb ham yuritiladi.

² Ubaydulloh ibn Mas’ud Buxoriy. Sharhul Viqoya // Hoshiyasida Umdatir-rioya". - Laknau: . "Yusufiy", 1327. - B. 50.

³ Abul-Barakot Nasafiy. Kanzud daqiq, - Bumbay: "Fathul karim", 1305. – B. 3.

⁴ Yusupov J. Abul Barakot Nasafiyning "Kanzu-daqiq" asariga yozilgan sharhlar // Toshkent Islom universitetining Ilmiy-tahliliy Axboroti. - Toshkent, 2008. - No 4. - B. 40-42

4) **“Al-Muxtor”**. Abul Fazl Majididdin Abdulloh ibn Mahmud Mavsiliyning (1202-1284) **“al-Muxtor fiy furuil hanafiya”** (Hanafiylik furusidagi ixtiyor qilingan rivoyatlar) yoki **“Al-Muxtor lil fatvo”** (Fatvo uchun ixtiyor qilingan rivoyatlar) nomli asari. Muallif o‘z asarini o‘zi **“Al-Ixtiyor li ta’lilil Muxtor”** nomi bilan sharhlagan bo‘lib, matn tuzishda faqat Abu Hanifa (rahimahulloh)ning fiqhiy qarashlarini ixtiyor etgani sababli shu nomni tanlaganini zikr qiladi.

5) **“Majmaul bahrayn”**. To‘liq nomi **“Majmaul bahrayn va multaqaqan nahrayn fiy furuil hanafiyya”** (Hanafiylik furusidagi ikki anhor uchrashuvi va ikki dengiz qo‘shiluvi). Uni Muzaffariddin Ahmad ibn Ali ibn Sa‘lab ibn Saotiy Bag‘dodiy Ba‘labakkiy Hanafiy (vaf. 694/1294) yozgan.

“Majmaul bahrayn” Abul Husayn Quduriyning (972-1037) **“Muxtasar”** hamda Abu Hafs Nasafiyning (1068-1142) **“Manzuma”** asarlari asosida tartib berilgan hanafiy mazhabidagi mo‘tabar fiqhiy matn kitobi hisoblanadi. **“Kashfuz zunun”**da Xoji Xalifa (1609-1657) uning g‘oyat qisqaligidan yod olish osonligini, mushkul o‘rinlarini yechish qulayligini, ozgina so‘zlar bilan ko‘pgina ma’nolarni ifodalaganini yozadi va unda ishlatilgan o‘ziga xos bir uslubni quyidagicha tushuntiradi: **“Muallif, agar Imomi A’zamning gapiga uning ikki sohibi xilof qilganini bildirmoqchi bo‘lsa, rivoyatni jumlai ismiya bilan, agar Abu Yusuf ikki zotga xilof qilgan bo‘lsa, rivoyatni kelasi zamondagi jumlai fe’liya bilan, agar Muhammad ikki zotga xilof qilgan bo‘lsa, o‘sha rivoyatni o‘tgan zamondagi jumlai fe’liya bilan keltirgan”**.

Sodda, mo‘jaz, yodlashga oson bo‘lganligi uchun unga ahli ilmlar katta e’tibor berib, unga o‘nlab sharhlar yozganlar. Muallifning Fotima nomli qizi otasidan ilm o‘rganib, otasining ushbu **“Majmaul bahrayn”** asariga chiroyli ta’liqot (qo‘shimcha izohlar) bitgan.

Mazkur kitoblar hanafiy mazhabidagi butun ulamolar e’tirof etadigan fiqhiy matn kitoblari hisoblanadi. Mazhabda yana qadri ulug‘ bo‘lgan bir qancha matn kitoblari mavjud.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ilmiy asarlar, risolalar

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy: J II. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 432 b.
2. Alimov U. Sunnat va hadis. – T.: Sharq, 2012.
3. Imom at-Termiziy. Sunani termiziy. – T. 1. – T.: Qomus, 1998.
4. Hamroqulov J. Mustalah al-hadis. – T.: Movorounnahr, 2004.
5. Imom Muslim. Sahihi Muslim.– Toshkent: Hilol-nashr, 2019–J.I.– 672.b.
6. Yusupov J. Abul Barakot Nasafiyning **“Kanzu-daqiq”** asariga yozilgan sharhlar // Toshkent Islom universitetining Ilmiy-tahliliy Axboroti. - Toshkent, 2008.

Xorijiy tildagi adabiyotlar

7. Abu Ja’far Muhammad Tohaviy. Sharh Maoni al-Asor. – Bayrut: Alam al-kutub, 2011. – 77 b.

8. Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar: Ok. 42000 slov. – 6-ye izd., stereotip. – M.: Rus. yaz., 1985. – 576 s.
9. Muhammad Abu Zuhra. Usul al-fiqh. – Qohira: Dor al-fikr al-arobiy, 2003.
10. Abul-Barakot Nasafiy. Kanzud daqoiq, - Bumbay: "Fathul karim", 1305.
11. Ubaydulloh ibn Mas'ud Buxoriy. Sharhul Viqoya // Hoshiyasida Umdatir-rioya". - Laknau: . "Yusufiy", 1327.
12. Abdulhay Laknaviy. Muqaddimatu Umdatir rioya" – Laknau: "Yusufiy", 1327.

